



**Atabek ALIMOV,**

O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

E-mail: alimovatabek20@gmail.com

**Rashid QULMATOV,**

O'zbekiston Milliy universiteti professori, k.f.d

**Jasurbek MIRZAEV,**

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD

TKTI Sanoat ekologiyasi kafedrasi mudiri PhD, dotsent F.Igitov taqrizi asosida

## SUG'ORILADIGAN MAYDONLARDA SIZOT SUVLARI SATHI VA MINERALLASHUV DARAJASINI ANIQLASH VA BAHOLASH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI, XO'JAYLI TUMANI MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani sug'oriladigan yerlarida 2015–2023 yillar davomida sizot suvlari sathi, mineralallashuvining o'zgarishlari GAT va statistik tahlillar asosida baholangan.

**Kalit so'zlar:** Sizot suvlari sathi, sizot suvlari mineralallashuvi, statistik tahlillar, GAT texnologiyalari.

### ОПРЕДЕЛЕНИЕ И ОЦЕНКА УРОВНЯ И СТЕПЕНИ МИНЕРАЛИЗАЦИИ ГРУНТОВЫХ ВОД НА ОРОШАЕМЫХ ЗОНАХ (НА ПРИМЕРЕ ХОДЖАЙЛИНСКОГО РАЙОНА РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН)

Аннотация

В работе с использованием ГИС и статистического анализа оценены изменения уровня грунтовых вод и минерализации за периоды 2015 и 2023 годов на орошаемых землях Ходжелинского района Республики Каракалпакстан.

**Ключевые слова:** уровень грунтовых вод, минерализация грунтовых вод, статистический анализ, технологии ГИС.

### DETERMINATION AND ASSESSMENT OF THE GROUNDWATER TABLE AND MINERALIZATION IN IRRIGATED AREAS (XOJELI DISTRICT, REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN)

Annotation

In the research work, changes in the groundwater table and mineralization during the periods of 2015 and 2023 were evaluated on the irrigated lands of the Xojeli district in the Republic of Karakalpakstan using GIS and statistical analysis.

**Key words:** groundwater table and mineralization, statistical analysis, GIS software.

**Kirish.** Sobiq Ittifoq tuzimi davrida suv va yer resurslaridan intensiv foydalanish, bir vaqtligi dunyodagi to'rtinchi yirik ko'l bo'lgan Orol dengizi suvining keskin kamayib ketishiga sabab bo'ldi. Orol dengizi havzasida sug'oriladigan maydonlar 1913 yilda 3 mln hektarda 1960 yilda 4,5 mln hektarga [1], 1960-1990 yillar davomida esa 4,5 mln hektardan 7,9 mln hektarga oshdi [2]. Orol dengizi suvining halokatli darajada kamayishi havzadagi suv resurslarining sifati yomonlashuviga hamda mintaqaviy suv balansining buzilishiga olib keldi [3,4]. Orol dengizi havzasini mamlakatlarida so'nggi 50 yil davomida intensiv sug'orish, o'g'itlar, zaharli pestitsidlar va defoliantlardan ortiqcha miqdorda foydalanish tufayli yer va suv resurslarining degradatsiyaga sabab bo'ldi [5]. Bundan tashqari, havza mamlakatlarida mayjud sug'orish tizimlarining samarasizligi sizot suvlari sathining ko'tarilishi, sug'oriladigan maydonlarning botqoqlanishi va sho'rланishiga sabab bo'lmoqda [6]. Tuproqning sho'rланish xavfini baholashda sizot suvi sathi o'zgarishiga hamda mineralallashuviga yetarlicha e'tibor qaratmaslik va baholamaslik hududlarda sho'rланishning kuchayishiga olib kelishi mumkin [7]. Jahon oziq-ovqat xavfsizligi tashkiloti tomonidan ta'kidlab o'tilgandek, hozirda, dunyoning asosiy sho'rlangan hududlari odatda yarim qurg'oqchil va qurg'oqchil, sizot suvlari sathi tuproq yuzasiga yaqin joylashgan hududlarda kuzatiladi [8]. Sizot suvlari sathi va mineralallashuvining o'zgarib turishi tuproq yuzasida tuz to'planishining asosiy sababi hisoblanadi [9]. Sizot suvlari mineralallaashuvining tuproqning sho'rланishiga hissasi, odatda, sizot suvi sathi ma'lum bir chuqurlikdan oshganda (odatda 1,5 m deb hisoblanadi) yuz beradi [10,11]. Sug'oriladigan maydonlarda kritik chuqurlikning joylashuvi bo'yicha har xil malaumotlar mayjud bo'lib, hududning geografik joylashuvi va boshqa faktorlar (nishablik, qiyalik, topografiya va boshq.) yer osti sizot suvlari sathiga ta'sir qilishi aniqlangan [12]. Agar sizot suvi sathi muayyan bir chuqurlikdan (kritik chuqurlik) yuqori ko'tarilsa, tuproq sho'rланishi kelib chiqishi mumkin. Xitoylek tuproqshunos olimlarning aniqlashicha, mamlakatning shimoli-sharqi qismidagi Songnen tekisligida tuproq sho'rланishidagi muhim bylgan sizot suvlaringin kritik chuqurligi 2-3 metr tashkil qiladi [13]. Boshqa olimlarning tadqiqotlari, sizot suvi sathining 1,5-2,5 m chuqurlikda bo'lishi, Xitoyning qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlarida, tuproq sho'rланishidagi muhim kiritik chuqurlik ekanligini aniqlaganlar [14,15]. Kulmatov va boshqalar tomonidan O'zbekistonning Sirdayo va Jizzax viloyatlari sug'oriladigan maydonlarda sizot suvlari sathi va mineralallashuvini baholash bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan va tuproq sho'rланishining oldini olish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan [6,16]. Xorazm viloyatida sizot suvlari sathi 1,5 m, mineralallashuvi 3 g/l bo'lsa sho'rланish havfi nisbatan kamroq bo'lishi mumkin degan fikrni M. Ibrakhimov o'z tadqiqot ishlariда bildirgan [17]. Rahimbaev tomonidan tuproq sho'rланishi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra mineralallashuvi 3 g/l atirofida bo'lgan sizot suvlari sathi 2 metrdan oshganda sho'rланishi kelib chiqishi aniqlangan [18]. Gafurova va boshqalar fikricha, sizot suvlari sathi 0,8-1 m oralig'ida bo'lganda mineralallashuvi 1 g/l dan kamroq, 1-1,5 m bo'lganda esa mineralallashuvi 1-2 g/l atirofida bo'lishi maqbul hisoblanadi [19]. Hozirgi kunda GAT yer osti suvlari sifatini baholash va


xaritalashda samarali vosita sifatida qo'llaniladi [20]. Yer osti sizot suvlarini o'rganishda GAT vazifalari: xaritalash va sifat ko'rsatkishlarini fazoviy ma'lumotlar integratsiya qilish orqali baholashni o'z ichiga oladi [21].

Yuqoridagi olimlarning fikr va mulohazalaridan ko'rish mumkinki, qishloq xo'jaligi maydonlarda sizot suvi sathi joylashuvi va mineralallashuvi uchun qa'tiy belgilangan muayyan ko'rsatkish yo'q. Shu bois, quyi Amudaryo hududida joylashgan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati sug'oriladigan maydonlari holatining o'zar o'xshashligi sababli, tadqiqot ishlari, sizot suvleri sathi 1,5 metr va mineralllushi 3 g/l etib belgilanishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Usbu ilmiy tadqiqot ishining maqsadi Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani sug'oriladigan maydonlarida sizot suvleri sathi va mineralllashuv jarayonlari dinamikasini statistik tahlil qilish va GAT asosida xaritalashtrishdan iborat.

### Tadqiqot metodologiyasi.

**2.1. Tadqiqot obiekti.** Tadqiqot obiekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasining Xo'jayli tumani tanlangan (**2.1.1-rasm**). Tuman Amudaryoning chap qirg'og'ida joylashgan bo'lib, shimol tomonidan Nukus tumani va Nukus shahri, janub tomonidan Turkmaniston Respublikasi, g'arb tomonidan Shumanoy va Qonliko'l, sharq tomonidan Taxiatosh tumanlari bilan chegaradosh. Tuman hududida sizot suvleri sathi va sizot suvleri mineralallashuvi doimiy kuzatib borish maqsadida 142 nazorat quduqlaridan foydalilmoqda (**2.1.1-rasm (B)**).



**2.1.1-rasm. Tadqiqot obiekti: a) Qoraqalpog'iston Respublikasi xaritasi; b) Xo'jayli tumani joylashuvi va nazorat quduqlarining joylashuvii.**

**2.2. Tadqiqotda qo'llanilgan usullar.** Sizot suvleri sathi va mineralallashuvi tog'risidagi ko'p yillik (2015 va 2022) ma'lumotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi tasarruffidagi Qaraqalpaq meliorativ ekspeditsiyasidan olindi va chuqur statistik va GAT yordamida tahlil qilindi. Maqola mualliflari tomonidan 2023 yilning aprel, iyul hamda oktabr oylarida maxsus dala ekspeditsyasi tashkil qilinib, tumanda hudida joylashgan 142 nazorat quduqlarida (**2.1.1-rasm (B)**) maxsus aniqlash ishlari olib borildi. Nazorat quduqlarida sizot suvleri sathi STAYER o'lchov lentasidan foydalanib aniqlandi hamda kuzatuv davrlarida quduqlardan 1 litrlik shisha idishlarga sizot suvlaridan namunalar olindi. Namunalar umumiy erigan qattiq moddalar (UEQM) va xlorid miqdori bo'yicha tahlil qilindi (**2.2.1-jadval**) [22].

### 2.2.1-jadval. Sizot suvleri mineralallashuvi klassifikatsiyasi.


UEQM, g/l	Cl, mg/l
0-1	0.0-0.164
1-3	0.164-0.494
3-5	0.494-0.822
5-10	0.822-1.64
>10	>1.64

Sizot suvleri sathi va mineralallashuvi bo'yicha o'lchov ma'lumotlari elektron shaklga o'tkazildi va har bir nazorat quduq'ining joylashuv nuqtasi, tadqiqot mobaynida global joylashishni aniqlash tizimi (GPS) qurilmasi orqali aniqlandi. GPS nuqtalari joylashuvi ma'lumotlari GAT texnologiyasi asosida qatlama ga aylantirildi va sizot suvi sathi va mineralallashuvi o'zgarishlarini ko'rsatuvchi vektorli xaritalar ArcGIS 10.6 dasturining IDW interpolyatsiya usuli asosida yaratildi [23].

### Natijalar va ularning tahlili


#### 3.1. Sizot suvleri sathi va mineralallashuvining mavsumiy o'zgarishi.

Tadqiqot yillarda faqat aprel oyida sizot suvleri sathi yer yuzasidan 1,5 metr va undan yuqori bo'lgan chuqurlikda joylashgan (**3.1.1-rasm**). Qolgan yillarda sizot suvleri sathi tuproq qatlamiga zarar yetkazmaydigan (sho'rlanishga olib kelmaydigan) chuqurlikda bo'lgan va bu yaxshi ko'rsatkish hisoblanadi. Biz qabul qilgan kritik chuqurlik 1,5 metr ekanligini hisobga olsak, sizot suvleri sathi iyul va oktabr oylarida ushu chuqurlikdan oshmagan. Aprel oyida sizot suvleri yer yuzasiga yaqin joylashishiga sabab tumanda vegetatsiya davridan oldin tuproqda sho'r yuvish ishlarning olib borilishi bo'lishi mumkin. Tumanda iyun, iyul, avgust oylarida sug'orish ishlari muntazam olib boriladi va bu o'z navbatida, sizot suvlarining sathining doimiy yer yuzasiga yaqin joylashishiga sabab bo'ladi. Iyul oyida maksimum havo harorati yuqori bo'lishini ham hisobga olsak, sizot suvleri sathining o'rtacha 1,7 va 1,8 m chuqurlikda joylashuviga havo harorati ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Oktabr oyiga kelib sug'orish ishlarning to'xtatilishi tufayli sizot suvleri sathining boshqa oylarga nisbatan ancha pasayganligini ko'rish mumkin (**3.1.1-rasm**).



**3.1.1-rasm. Sizot suvi sathining ortacha mavsumiy o'zgarishi.**

Umuman sizot suvleri sathining yer yuzasiga yaqin joylashishi ko'p jihatdan sug'orish suvi miqdoriga hamda kollektor-zovur tizimi bilan ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi [22].




### 3.1.2-rasm. Sizot suvi mineralashuvining ortacha mavsumiy o'zgarishi.

Tumanda sizot suvlari mineralashuvining ko'p yillik mavsumiy o'zgarishlari **3.1.2-rasm** da ko'rsatilgan. Tadqiqot yollarida umumiy ortacha mineralashuv aprel oyida 2,94 g/l, iyul oyida 2,96 g/l hamda oktabr oyida 2,56 g/l ni tashkil qilgan. Sizot suvlari mineralashuvning eng yuqori ko'rsatkishi 3,75 g/l, eng kichik ko'rsatkichi 2 g/l bo'lgan. Olingan natijalardan xulosa qilish mumkinki, sizot suvlari mineralashuvi keyingi 5 yil davomida biroz kamaygan ya'ni mineralashuvi 3 g/l dan pasaygan va bu yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi. Chunki, mineralashuv darajasi yuqori bo'lgan suvlar (sug'orish suvi va sizot suvi) tuproq sho'rlanishi xavfini oshiradi. Tadqiqot yillari davomida, aprel va iyul oyida sizot suvlari mineralashuvi 2,5 va 3 g/l atrofida bo'lgan bo'lsa oktabr oyida esa o'rtacha 2,0 va 2.5 g/l atrofida bo'lgan.

### 3.2 Sizot suvlari sathi va mineralashuvi o'zgarislarining GAT tahlili.


Sizot suvlari sathi va mineralashuvi darajalarining yillik o'zgarish dinamikasini ko'rsatuvchi xaritalar **3.2.1** va **3.2.2** rasmlarda berilgan. Tadqiqotlar davomida IDW usuliga asoslanib yaratilgan xaritada sizot suvlari sathi 1-1,5 m, 1,5-2 m va 2-3 m bo'lgan maydonlar aniq ko'zga tashlanib turadi (**3.2.1-rasm**). Sizot suvlari sathi 1 m a'tirofida bo'lgan maydonlar 2019 va 2020 yillarda juda kam sug'oriladigan maydonlarda kuzatilgan bo'lsa, sathi 3-5 m chuqurlikda bo'lgan maydonlar, asosan, keyingi 3 yil (2021, 2022, 2023) davomida nisbatan kam miqdorda oshganligini ko'rish mumkin.



### 3.2.1-rasm. Tumanning ortacha sizot sulavi sathi xaritasi.

Sizot suvlari mineralashuvi bo'yicha olingan tadqiqot natijalaridan ma'lum boldiki: sizot suvlari mineralashuvi 0-1 g/l bo'lgan sug'oriladigan maydonlar kuzatilmagan. Mineralashuvi 1-3 g/l va 3-5 g/l bo'lgan maydonlar xaritada aniq ko'ringan. Oxirgi 5 yilda mineralashuvi 1-3 g/l bo'lgan sug'oriladigan maydonlar tumanda katta maydonlarni egallagan (**3.2.1-rasm**).

### 3.2.2-rasm. Tumanning sizot suvlari ortacha mineralashuvi xaritasi.



Tumanning sharq tarafida yer osti sizot suvlari mineralashuvi 5-10 g/l bo'lgan maydonlar asosan 2020 yilda ko'proq kuzatilgan (**3.2.2-rasm**). Sizot suvlari mineralashuvi tadqiqot yillari davomida o'zgarib turganligini ko'rish mumkin. Ammo, asosan mineralashuv ko'rsatkishi sug'oriladigan maydonlarda 1-3 va 3-5 g/l a'tirofida bo'lgan.

**Xulosalar.** Sug'oriladigan maydonlarda sizot suvlari sathi va mineralashuvi darajasini mutazam monitoring qilish sug'oriladigan maydonlarning sho'rlanish jarayoni oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohadagi ilmiy va amaliy ishlarni amalga oshirishda GAT texnologiyalari qo'llash yaxshi natija beradi. Sizot suvlari sathi belgilangan 1,5 m chuqurlikda bo'lishi, asosan, sho'r yuvish ishlari sababli aprel oyida yer yuzasiga yaqin bo'lishi kuzatilgan; iyul va oktabr oylarida sizot suvlari sathi kritik chuqurlikdan oshmag'an; sizot suvlari mineralashuvi 2016 yil aprel oyida va 2018 yil oktabr oyida 3 g/l dan oshgan, qolgan kuzatuv yillarda mineralashuv darajasi asosan, 2-3 g/l oralig'iда bo'lgan; tuman hududi bo'ylab sizot suvlari sathi va mineralashuvining o'zgarib turishida sug'oriladigan maydonlarning relyefi ham ta'sir qilishi aniqlandi; GAT usuli orqali tuman relyefi sizot suvlari sathi va mineralashuvi darajalariga ta'sir qilishi IDW usuli orqali xaritalarda ma'lum boldi; Tumanda sizot suvlari sathi va mineralashuvini kamaytirishda GAT texnologiyalaridan foydalangan holda yaratilgan xaritalardan foydalanish tavsiya etildi.

**ADABIYOTLAR**

1. Bortnik. V. N., 1999. Alteration of water level and salinity of the Aral Sea. p. 47–66. In M. H. Glantz (Ed) Creeping environmental problems and sustainable development in the Aral Sea Basin. Cambridge University Press, UK. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511535970.004>
2. UNEP (2000) State of environment of the Aral Sea Basin. Regional report of the Central Asian States' 2000. <http://www.grida.no/aral/aralsea/english/water/water.htm>
3. Akramkhanov, A., Martius, C., Park, S.J., Hendrickx, J.M.H., 2011. Geoderma environmental factors of spatial distribution of soil salinity on flat irrigated terrain. *Geoderma* 163 (1–2), 55–62.
4. Groll, M., Opp, C., Aslanov, I., 2013. Spatial and temporal distribution of the dust deposition in Central Asia – results from a long term monitoring program. *Aeolian Res.* 9, 49–62. <https://doi.org/10.1016/j.aeolia.2012.08.002>.
5. N. Orlovsky and L. Orlovsky., Beijing 2002. 12th ISCO Conference. Irrigation and Desertification: Ecological Consequences of Arid Land Reclamation in the Aral Sea Basin and Land Degradation Control. P-602.
6. Kulmatov R., Adilov S., Khasanov S., 2020. Evaluation of the spatial and temporal changes in groundwater level and mineralization in agricultural lands under climate change in the Syrdarya province, Uzbekistan. *IOP Conf. Ser. Earth Environ. Sci.* 614 (1), 012149 <https://doi.org/10.1088/1755-1315/614/1/012149>.
7. Mohamed Khaled Ibrahim, Tsuyoshi Miyazaki, Taku Nishimura, Hiromi Imoto. Contribution of shallow groundwater rapid fluctuation to soil salinization under arid and semiarid climate. *Arab J Geosci* (2014) 7:3901–3911. Page 3902. <https://doi.org/10.1007/s12517-013-1084-1>
8. FAO (2002) Biodrainage—principles, experiences and applications. Knowledge Synthesis Report No. 6—May 2002. International Programme for Technology and Research in Irrigation and Drainage Food and Agriculture Organization of the United Nations.
9. Al-GarniMA, El-KalioubiHM(2011)Delineation of saline groundwater and sea water intrusion zones using transient electromagnetic (TEM) method, Wadi Thuwal area, Saudi Arabia. *Arab J Geosci* 4:655–668. <https://doi:10.1007/s12517-009-0094-5>
10. Kara T (2002) Irrigation scheduling to prevent soil salinization from a shallow water table. *Proc. IS on Salination for Hort. Prod.* Eds. U. Aksoy et al. *Acta Hort.* 573, ISHS: 139–151 <https://doi.org/10.17660/ActaHortic.2002.573.16>
11. Northey JE, Christen EW, Ayars JE, Jankowski J (2006) Occurrence and measurement of salinity stratification in shallow groundwater in the Murrumbidgee Irrigation Area, south-eastern Australia. *AgricWater Manag* 81:23–40. <https://doi.org/10.1016/j.agwat.2005.04.003>
12. Mohammadtaghi Avand, Saeid Janizadeh, Dieu Tien Bui, Viet Hoa Pham, Phuong Thao T. Ngo and Viet-Ha Nhu. A tree-based intelligence ensemble approach for spatial prediction of potential groundwater. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DIGITAL EARTH*. 2020, VOL. 13, NO. 12, 1408–1429. <https://doi.org/10.1080/17538947.2020.1718785>
13. Zhang, D. F., & Wang, Sh. J. (2001). Mechanism of freezethaw action in the process of soil salinization in northeast China. *Environmental Geology*, 41, 96–100. <https://doi.org/10.1007/s002540100348>
14. Guo, Zh. R., & Liu, H. T. (2002). Secondary salinification of soil and dynamic control of groundwater in irrigation area of inland basin, northwestern China. *Agro-environment Protection*, 21(1), 45–48.
15. Qiao, Y. H., & Yu, Zh. R. (2003). Simulation study on the effects of irrigation on soil salt and saline water exploration. *Acta Ecologica Sinica*, 10, 2050–2056.
16. R. Kulmatov, J. Mirzaev, Jilili Abduwaili, B. Karimov. Challenges for the sustainable use of water and land resources under a changing climate and increasing salinization in the Jizzakh irrigation zone of Uzbekistan. *J Arid Land* (2020) 12(1): 90–103. <https://doi.org/10.1007/s40333-020-0092-8>
17. M. Ibrakhimov, A. Khamzina, I. Forkutsa, G. Paluasheva, J. P. A. Lamers, B. Tischbein, P. L. G. Vlek, C. Martius. Groundwater table and salinity: Spatial and temporal distribution and influence on soil salinization in Khorezm region (Uzbekistan, Aral Sea Basin). *Irrig Drainage Syst* (2007) 21:219–236. <https://doi.org/10.1007/s10795-007-9033-3>
18. Rakhimbaev FM, Bezpakov NF, Khamidov MK, Isabaev KT, Alieva D (1992) Peculiarities of crop irrigation in lower Amu Darya river areas (in Russian). Fan, Tashkent, Uzbekistan
19. Gafurova L A, Abdullaev S A, Nomozov H K. 2005. Encyclopedia of Uzbekistan. Tashkent: National Publishing House, 190.
20. Soumya Singha, Sudhakar Singha, C.P Devatha, M. K. Verma. Assessing Ground Water Quality using GIS. *International Journal of Engineering Research & Technology (IJERT)*. Vol. 4 Issue 11, November-2015
21. Hamed S, Abbas A, Mahmood Y, Ali AM, Fazlollah CK (2018) Data on assessment of groundwater quality for drinking and irrigation in rural area Sarpole Zahab city, Kermanshah Province, Iran. *Data Brief* 17:148–156. <https://doi.org/10.1016/j.dib.2017.12.061>
22. R. Kulmatov, J. Mirzaev, and etc. Challenges for the sustainable use of water and land resources under a changing climate and increasing salinization in the Jizzakh irrigation zone of Uzbekistan. *J Arid Land* (2020) 12(1): 90–103. <https://doi.org/10.1007/s40333-020-0092-8>
23. ESRI, 2018. ArcGIS desktop: release 10.6 (10.6). *Environ. Syst. Res. Inst.*